

## MILLIY VA XALQ RAQS SAN'ATI

**Turg'unova Mumtozbeim Muhiddinjon qizi**

O'z DSMI FMF

xoreografiya jamoalar rahbari 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Abduhamidov Akmaljon**

O'z DSMI FMF "Xoreografiya" o'qtuvchisi

***Anatatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek milliy raqsining kelib chiqish tarixi, ko'plab raqs san'atida uchraydigan harakatlar, hamda xalqimiz sevgan va ardoqlagan ustoz xoreograflar Mukarrama Turg'unboyeva hamda Isahor Oqilov sahnalashtirgan durdonalar haqida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** raqs, sahna, lirika, ansambli, ijodiy izlanish, musiqa, o'lchov, xoreografiya, milliy raqs, xalq raqsi.*

Milliy raqs va xoreografiya ta'limini yanada rivojlantirish, raqs san'atining tarixiy an'analarini va usullarini tiklash, avaylab asrash hamda boyitish, millatimizning o'ziga xos sharqona milliy yo'nalishlarini targ'ib etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, milliy raqs yo'nalishlari bo'yicha uzoq muddatli, maqsadli dasturlar tayyorlash, raqs san'atini xalqimizning yuksak ma'naviyati va nozik, noo'rin taqlidga asoslangan xatti-harakat va liboslar madaniyidan saqlash, maxsus ta'lim tizimini takomillashtirish, malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'laroq qondirish hamda bu sohada tashkilotlarning moddiy negzini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilishi lozim bo'lgan talaygina maqsad va vazifalar mavjud.

O'zbek milliy ashulla va raqs san'atini mukammal o'rnatish va xalqqa yetkazish maqsadida ilk bor 1930-yil Samarqand shahrida Muhiddin Qori Yoqubov boshchiligida birinchi studiya tashkil etildi.

Mustaqillik davrida raqs san'ati yanada tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. 1997-yil 8-yanvarda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekistonda milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi

farmoni va mazkur farmonni bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining o‘sha yili 25-fevralda 101-qarori chiqqan. Shu jumladan M. Turg‘unboyeva nomidagi "O‘zbek raqs" ijodiy birlashmasi tashkil topdi, birlashma qoshida maxsus jamg‘arma tuzildi. Xoreografiya bilim yurti negizida esa Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi barpo etildi. "O‘zbek raqs", "O‘zbeknavo" ijodiy birlashmalari tarkibidagi ansambllar, xalq raqs me’rosini o‘rganish va tiklash asosida yangi raqslar yaratish, an’anaviy raqslarni asrabavaylash va munosib darajada namoyish etish, yosh raqqos va raqqosalarni tarbiyalab yetishtirish bo‘yicha olib borayotgan harakatlari ijobiy natijalar bermoqda. Milliy raqs ijrochiligi bo‘yicha M. Turg‘unboyeva nomidagi mukofot ta’ sis etilgan. Bir qator davlat va xalq raqs ansambllari (masalan, "Bahor", "Tanavor" va boshqa), raqs ustalari jahonning turli mamlakatlarida bo‘lib, o‘zbek raqs san’atini namoyish etmoqdalar.

Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari vujudga kelgach, raqs san’atida ham o‘ziga xos uslublar maydonga keldi. Bu davrda jaholat, mutaassiblik kuchaygani sababli raqs san’atida o‘smir bolalar va yigitlar yetakchilik qilgan. Ayollar raqsi esa sozanda (Buxoro amirligi), xalifa (Xiva xonligi) va yallachi (Farg‘ona vodiysida) deb yuritilgan ayol san’atkorlardan iborat ihcham guruhlarning teatrlashgan dasturlarida rivojlanib, yopiq joylarda uyushtiriladigan ziyofat va bazmlarda ko‘rsatib kelingan. Shu jumladan erkaklarning yig‘inlarida raqqosalar yashirincha qatnashib ishtirok etganlar. 20-asrda raqs san’ati Buxoro raqsi, Xorazm raqsi, Farg‘ona raqsi yo‘nalishida; zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan sahnaviy xalq raqsi sifatida: milliy raqs unsurlaridan foydalangan balet spektakllari tarzida rivojlanib keldi. Mazkur yo‘nalishlarning har biri asr davomida bir necha tarixiy bosqichni bosib o‘tib, o‘z shakli va shamoyiliga, mazmuniga ega bo‘lgan. Bir qator davlat va xalq raqs jamoalari jahonga tanildi. Bunda Hamdamxon, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva, Gavhar Rahimova, Roziya Karimova, Qunduz Mirkarimova, Karim Rahimov, Qodir Mo‘minov, Ma’mura Ergasheva, Yulduz Ismashova, Shokir Ahmedov, Gavhar Matyoqubova, Rushana

Sultonova, Dilafro‘z Jabborova, Qizlarxon Do‘stmuhammedova, Malika Ahmedova kabi raqs ustalarining xizmati katta bo‘lgan.

Xalq sahna raqsi ham davr bilan hamnafas tarzda jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib rivojlanib bormoqda. Mavjud xoreografik jamoalar yangilandi, professional va havaskor, o‘smirlar va bolalar uchun yangi jamoalar yuzaga kela boshladi. Bugungi kunda xalq raqsi san‘ati san‘at kollejlari, raqs maktablari, raqs studiyalarida va hozirgi kunda keng tarqalgan san‘at maktablarida keng saviyada o‘rgatilmoqda.

Xalq sahna raqsi ijrochisini tayyorlash – uzoq davom etadigan, pedagogdan ham, talabdan ham tizimli muntazam mehnatni talab qiladigan jarayondir. Xalq sahna raqsi bo‘yicha beriladigan darsning asosiy vazifasi raqqos va raqqosalarning harakat apparatini yaxshi shakllantirish, harakatlar harakteriniva ijro uslubini o‘zlashtirishdir. Ayni shu bajariladigan jarayonda maxsus moslama yordamidagi mashqlarining ahamiyati juda katta ro‘l o‘ynaydi. Xalq sahna raqsi mashqlarining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardir: raqqos jismoniy harakatini zarur o‘rtasida raqs harakatlarini bajarishga tayyorlash, ishlashga jalb qilish, klassik raqsdan unchalik zarur bo‘lmagan mushshak va paylarni rivojlantirishdir. Buning uchun xalq sahna raqsi mashqlarida keskin o‘tirishlar, ochiq va yopiq poitsiyalar, tayanch oyoq tovonida ishlash, tovonni sirpanuvchanharakat bilan keskin va aniq ishlash va yana ko‘plab mashqlarni o‘z ichiga oladi. Xalq sahna raqsidagi mashqlar klassik raqsidagi mashqlardan o‘zining emotsionalligi, ijro uslubi va manerasi bilan alohida ajralib turadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki xalq va milliy raqslari san‘ati turli ritmik harakatlar orqali badiiy-ijodiy tassurot uyg‘otadi. Xalq va milliy raqs san‘atining har bir harakati, har bir qadami ma‘lum bir ma‘nolarga ega. Raqs harakatlari - hissiyotlarining tashqi ko‘rinishi. Hatto harakatidagi ma‘lum bir kichik o‘zgarishi ham kayfiyatni o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Xalq raqsi betakror ifoda vositalari orqali go‘zallikni shakllantiradi, ularning qayg‘u va quvonchlarini ifodalaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shahzoda Xudoynazarova O‘zbek xoreografiya sa’nati namunalari.
2. Lopuxov F. Xoreograficheskiye otkrovennosti. M. 1972.
3. Smirnov I.V. Rabota baletmeystera nad xoreograficheskim proizvedeniyem. Uchebnoye posobiye.M. 1979.